

UDK: 950 (575.1):371.3

TA'LIMNI MODIFIKATSIYALASH SHAROITIDA TARIX FANLARINI O'QITISHNING INNOVATSION METODIK TIZIMINI YARATISHNING PEDAGOGIK TAVSIFI

Xurshidjon Boymirzaev Karimjanovich,

NamDU, Tarix kafedrasasi dotsenti, (PhD).

boymirzayevhurshidjon@gmail.com, +998994339616

***Annotitsiya:** Tarix o'qitish metodikasi mutaxassislik fanlaridan biri sifatida tarix fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini sifatli, samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yoritadi. Mazkur fan talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga amaliy-metodik jihatdan tayyorlash, o'ziga xos xususiyatlari asosida tarix fanlarini samarali o'qitish istiqbolini belgilash, tarix fanlari o'qituvchilarining metodik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogika sohasida yangi ta'limiy qadriyatlarning qaror topishi tarix o'qitish metodikasi fanining mazmunini izchil takomillashtirib borishni taqozo etadi. Maqolada ana shu haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** tarix fanlari, o'qitish, metodika, tarix o'qitish, tarix o'qitish metodikasi.*

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ СОЗДАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ В УСЛОВИЯХ МОДИФИКАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация:** Методика преподавания истории как одного из предметов специальности охватывает педагогические условия, необходимые для качественной, эффективной организации преподавания истории. Данный предмет служит для подготовки студентов к профессиональной педагогической деятельности, определения перспектив эффективного преподавания истории с учетом ее специфики, развития качеств методической компетентности преподавателей истории. Утверждение новых*

образовательных ценностей в области педагогики требует постепенного совершенствования содержания предмета методики преподавания истории. В статье речь идёт об этом.

Ключевой слова: исторические науки, преподавание, методика, преподавание истории, методика преподавания истории.

PEDAGOGICAL DESCRIPTION OF THE CREATION OF AN INNOVATIVE METHODOLOGICAL SYSTEM OF HISTORY TEACHING IN THE CONDITIONS OF MODIFICATION OF EDUCATION

Annotatsiya: *The methodology of teaching history as one of the subjects of the specialty covers the pedagogical conditions necessary for a high-quality, effective organization of teaching history. This subject serves to prepare students for professional pedagogical activity, to determine the prospects for effective teaching of history, taking into account its specifics, to develop the qualities of the methodological competence of history teachers. The assertion of new educational values in the field of pedagogy requires a gradual improvement of the content of the subject of the methodology of teaching history. The article is about this.*

Keywords: *historical sciences, teaching, methodology, teaching history, methodology of teaching history.*

KIRISH

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining mavjud bosqichi uchun yuqori texnologiyalarning rivojlanishi xarakterli xususiyat kasb etmoqda. Jahon hamjamiyatida ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda texnologiyalar sohasida erishilayotgan yutuqlar o'z navbatida mustaqil O'zbekiston tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishning istiqbollari belgilanishini taqozo etmoqda. Binobarin, globallashtirish sharoitida milliy davlatning avtonom holda taraqqiy etishi mumkin emas va bu holat O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'zaro tenglik, hamkorlikka, har bir sohada umuminsoniy tamoyil hamda standartlarga erishishi zarurligini anglatadi.

Tarix o'qitish metodikasi va uni takomillashtirish xususida so'z yuritishdan avval "metodika", "o'qitish metodikasi", "tarix o'qitish metodikasi" tushunchalarning lug'aviy ma'nosini bilib olish talab qilinadi.

Manbalardan birida ko'rsatilishicha, "metodika" atamasi lug'aviy jihatdan "amaliy jihatdan nimanidir bajarish uchun qo'llaniladigan metod va usullar yig'indisi" [4]; "nimadir o'qitish yoki qandaydir ishni bajarishga oid qoidalar tizimi, metodlarning bayoni" [4]; "qandaydir yo'naltirilgan harakatni amalga oshirishning tayyor "retsepti", algortmi, bajarilish tartibi" [5] ma'nolarini anglatadi.

N.A.Muslimov, O'.M.Asqarova, M.H.Usmonboeva, D.Sayfurov, X.Raxmatova va boshqalarning e'tirofiga ko'ra, "metodika" tushunchasi negizida: 1) ma'lum maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirish chora-tadbiri; 2) pedagogik jarayonda real qo'llaniladigan usul va vositalar mohiyati, ahamiyati, amaliy qiymati, texnik jihatlarini ochib berish algoritmi [8, 125]; biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmui [7, 311] kabi ma'nolar anglanadi.

"O'qitish metodikasi" tushunchasi o'qitish va metodika atamalarining yig'indisidan hosil bo'lgan va anglanganidek, muayyan fanni samarali o'qitilishini ta'minlovchi shakl, metod, vosita, usul hamda texnologiyalar mohiyatini, ulardan foydalanish yo'llarini ifodalaydi. Fikrimizni "o'qitish (yoki ta'lim) metodikasi" tushunchasiga tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflarning mazmuni ham tasdiqlaydi. Misol uchun, o'qitish metodikasi – u tomonidan ko'proq samaralarga erishilishini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayonini tadqiq etuvchi pedagogik fanlar tarmog'i bo'lib, u o'z ichiga ta'limning metod, qoida va vositalarini oladi [3].

Garchi "metodika" va u bilan bog'liq holda "o'qitish metodikasi" tushunchalarining shakllanish va til iste'moliga kiritilish tarixi qadimgi Gretsiya bilan bog'liq bo'lsa-da, biroq, hanuzgacha ularning nazariy tavsifi to'g'risida yagona to'xtamga kelinmagan. Bizning nazarimizda, buning boisi – bajariladigan harakat va o'qitiladigan fan tarmoqlarining o'ziga xosligi, maqsadning turlicha ifodalanishi, yo'nalishlarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Umumiy holda "o'qitish metodikasi" negizida "o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal qilish bo'yicha o'qituvchining o'qitishga qaratilgan hamda o'quvchilar tomonidan tashkil qilinadigan o'quv-bilish faoliyatining yo'lga qo'yilishining yo'llari; ta'lim vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro

bog'liq faoliyatini tartibga solish yo'llari; o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkillashtirish yo'llari" [10] aks etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Manbalarda o'qitish metodikasining avtonom emas, balki bir necha fanlar majmuidan iborat ekanligi aytiladi. Jumladan, o'qitish metodikasi "pedagogika, psixologiya va lingvistika kabi tayanch fanlarga tayanadi. Pedagogika kabi o'qitish metodikasi ham ta'lim masalalari bilan shug'ullanadi. Binobarin, ta'lim jarayonida, eng avvalo, og'zaki va yozma nutqdan foydalaniladi" [3].

Manbalarda "Tarix o'qitish metodikasi" fanining maqsadi turlicha ifodalangan bo'lsa-da, ammo u narsa aniqki, ushbu fan o'zida xususiy jihatlarni namoyon qiladi. Ayrim manbalarda "Tarix o'qitish metodikasi" fanning maqsadi sifatida umumiy pedagogik maqsad bayon qilingan. Jumladan, A.R.Raxmatullaeva tomonidan yaratilgan "Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish metodikasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmuada fan maqsadi shunday bayon qilingan: "Tarix o'qitish metodikasi o'qituvchilarni ta'limning an'anaviy va noan'anaviy metod, usul, shakl, vositalarini, ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik asoslari bilan qurollantirib, tarix ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi" [6, 4].

Jumladan, T.N.Glazyrina dastlab tushunchani ta'riflab, so'ngra tegishli fan maqsadini quyidagicha ifodalaydi: Tarix o'qitish metodikasi – uning samaradorligini oshirish maqsadida tarix o'qitishni tadqiq etuvchi pedagogik fan bo'lib, uning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni tarix hamda jamiyatshunoslik kurslarining o'quv materiallari asosida ta'lim jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishga, ularda tarixiy tafakkur, tayanch kompetentlik sifatlarini shakllantirishga tayyorlashning qonuniyatlari va tarix o'qitish malakalarini aniqlashdan iboratdir [2, 5].

V.V.SHogan va E.V.Storajakova T.N.Glazyrinaning fikrini to'ldirgan holda tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: Tarix o'qitish metodikasi – o'qitishning vazifalari, mazmuni va metodlar to'g'risidagi pedagogik fan bo'lib, u samaradorlik va sifatni oshirish maqsadida tarix fanlarini o'qitish jarayonining qonuniyatlarini o'rganadi va tadqiq etadi [12, 9].

F.G.Tursunov huquq fanlarini o'qitish misolida "o'qitish metodikasi" tushunchasini shunday izohlaydi: huquq fanlarini o'qitish metodikasi – ta'lim muassasasining faoliyat yo'nalishi, sohani rivojlantirish konsepsiyasining mohiyati, bo'lajak mutaxassisning

kasbiy-huquqiy kompetentligiga qo'yiladigan talablarni inobatga olgan holda yuridik materiallarni tanlash asosida talabalarni nazariy va amaliy jihatdan kasbiy faoliyatga tayyorlashga, huquq ta'limi sifatini yaxshilash, o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim shakli, metodi, vosita hamda texnologiyalarini takomillashtirish xizmat qiluvchi o'quv fani [11, 22]. Bu izoh muayyan fan (yoki fanlar)ni o'qitish metodikasi o'quv predmeti sifatida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangilanishlarni inobatga olgan holda talabalar tomonidan nazariy hamda amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirilishi uchun zarur bo'ladigan pedagogik sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Bunda xorij va milliy ta'lim tajribasida samaradorligi tasdiqlanib, o'qitish jarayonining qiziqarli, mazmunli, foydali, unumli bo'lishini ta'minlovchi shakl, metod, vosita va texnologiyalarni tanlashga e'tibor qaratiladi.

Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi integral (bir necha turdosh fanlar xususiyatlarini umumlashtiruvchi, muhim jihatlarni sintezlovchi) fan sanaladi. Misol uchun huquq fanlarini o'qitish metodikasi mazmunan "Konstitutsiyaviy huquq", "Fuqarolik huquqi", "Mehnat huquqi", "Oila huquqi", "Jinoyat huquqi", "Ma'muriy huquq", "Ekologiya huquqi", "Xo'jalik huquqi", "Xalqaro huquq" kabi fanlarning individual xususiyatlarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda samarali, ahamiyatli bo'lgan metodik ta'minotni yaratish yo'llarini ko'rsata olishi zarur.

Xususiy fanlarni o'qitish metodikasi fani bo'lajak pedagoglarni ta'lim jarayoni uchun mavzu, u yuzasidan taqdim etilayotgan material, talabalarning o'quv-bilish faolligi asosida o'qitishning shakl, metod, vosita va texnologiyalarini maqsadli tanlashga oid ma'lumotlar bilan qurollantirib, ularni amaliy jihatdan mustaqil pedagogik faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Zamonaviy sharoitda mazkur fan o'z mohiyatiga ko'ra bo'lajak pedagoglarni axborotlar bilan ishlashga tayyorlaydi. Bu jarayonda talabalarning zarur, muhim va foydali axborotlarni izlash, ularni saralash, qayta ishlash va o'quvchilar e'tiboriga o'quv topshiriqlari sifatida taqdim etish, o'qitish jarayonida kompyuter va multimedia texnologiyalari, raqamli ta'limiy resurslardan samarali foydalana olish qobiliyatini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Amaliyot xususiy fanlarni o'qitish metodikasi fanining ham pedagoglar ham talabalar uchun birdek ahamiyatli ekanini ko'rsatdi. Bir tomondan, mazkur fan yosh, etarlicha yoki umuman, ish tajribasiga ega bo'lmagan pedagoglar uchun metodik yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa talabalarni o'qitish jarayonining umumiy mohiyati, tashkiliy-metodik jihatlari bilan tanishtiradi. Fan yordamida talabalarda o'qituvchining pedagogik hamda o'quvchining o'quv-bilish faoliyati mohiyatini to'la anglash, o'quvchilarni psixologik jihatdan boshqarish, ta'lim maqsadi va vazifalarini belgilash, o'qitishning samarali shakl, metod, vosita, texnologiya, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholovchi usul va metodlarni tanlash, o'quv topshiriqlarini shakllantirish, har bir mavzu yuzasidan metodik ta'minotni yaratish, o'qitish jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlar, ularni oqilona hal qilish kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan asosiy tayanch tushunchani shunday ta'riflash mumkin: ***tarix o'qitish metodikasi*** – talabalarni ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritishga kognitiv, empirik va psixologik jihatdan tayyorlash, ularda metodik kompetensiyani rivojlantirish, tarix fanlarini o'qitishning sifat va samaradorligini ta'minlovchi o'quv fani. Ushbu fan mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, tarix fani o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan kompetentlik sifatleri – kasbiy bilimdonlik, tarixiy jarayonlarga xolis baho berish; tarixiy materiallar (qo'lyozmalar, arxiv materiallari, me'yoriy hujjatlar, memuar asarlar, solnoma (yilnoma)lar, tarixiy mavzudagi monografik asarlar va ilmiy maqolalar, "xalq arxivi", "og'zaki tarix") hamda o'qitish vositalari (o'quv adabiyotlari, turli tarixiy davrlarga oid xaritalar, tarixiy atamalar lug'atlari, muzey eksponatlari, arxeologik buyumlar, milliy-madaniy yodgorliklar) bilan ishlay olish; tahlil va sintez qilish qobiliyati, tanqidiy tafakkur, kuchli xotira, axborot madaniyati, huquqiy ong va professional obro'ga egalik; izlanuvchanlik, kreativlik; ijtimoiy faollik; kasbiy vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bizningcha, "Tarix o'qitish metodikasi" tushunchasini ikki xil ma'noda talqin etish mumkin. Birinchidan, "Tarix o'qitish metodikasi", darahaqiqat, pedagogik fanlar turkumiga kiruvchi mutaxassislik fani bo'lib, u tarix fanlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni samarali o'qitish, bu borada istiqbolli rivojlanish yo'llarini tadqiq qiladi. Ikkinchidan, tarix o'qitish metodikasi pedagogik

faoliyat yo'nalishi bo'lib, ta'limiy o'zgarishlar, o'qitish yangi tendensiyalari va zamonaviy nazariyalariga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan tarix fanlarining o'qituvchilari o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga bo'lgan munosabatlari mazmunini ifodalaydi.

Barcha fanlar kabi "Tarix o'qitish metodikasi" fani ham muayyan vazifalarni hal qiladi. O'quv predmeti sifatida hal etadigan vazifalari xususida to'xtalishda "Tarix o'qitish metodikasi" fanining, birinchidan, talabalar, ikkinchidan, amaliyotchi-o'qituvchilar uchun xizmat qilishini nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. SHu bois vazifalarni belgilashda ham o'quv predmetining sub'ektini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Agarda sub'ekt talabalar bo'lsa, u holda "Tarix o'qitish metodikasi" fani negizida quyidagi vazifalar hal qilinadi: "talabalarni tarix o'qitish metodikasining tarkibiy tuzilmasi va mazmuni bilan tanishtirish; bo'lajak o'qituvchilarni tarix o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid zamonaviy bilimlar, tarix fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan muqobil yondashuvlar bilan qurollantirish; talabalarda tarix fanlarini o'qitishda yuqori samaradorlikka erishish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantirish; talabalarni o'quvchilarda milliy ong va vatanparvarlik hissini tarbiyalashga, shuningdek, tarixiy voqea, hodisalarni hamda zamonaviy jamiyat rivojiga oid dalillarni xolis tushuntirish malakalarini o'zlashtirishga tayyorlash; bo'lajak o'qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagoglarga qo'yiladigan talablarning anglanishini ta'minlash; talabalarda kasbiy jihatdan o'sish, o'z ustida mustaqil ishlash, o'z-o'zini kasbiy takomillashtirish layoqatini rivojlantirish" [13, 6].

Bordi-yu, "Tarix o'qitish metodikasi" fani amaliyotchi-pedagoglar uchun xizmat qilsa, u holda quyidagi pedagogik vazifalarning ijobiy hal etilishi talab qilinadi: tarix fani o'qituvchilarini "tarix fanlarini o'qitish metodikasining ilmiy asoslari, tarixchi pedagoglarni tarix ta'limi metodi, shakllari, vositalari va texnologiyalari bilan tanishtirish; ularda o'quv dasturlarini yaratish, nazariy va metodik ma'lumotlarini samarali izlash, nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik materiallarni to'plash va ularni saralash; nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash, shuningdek, o'quv topshiriqlarining turlarini belgilash hamda o'quv topshiriqlari to'plamini shakllantirish; o'quv topshiriqlari uchun ish

qog'ozlarini hamma o'quv fanlari bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini tayyorlash malakalarini shakllantirish [6, 4].

Fanni o'qitish asosida talabalarning tarbiya maqsadlari, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarning aniq o'quv-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini aniqlash; o'quv faoliyatini tashkil etishning turli shakllarini qo'llash; o'quv predmeti bo'yicha barcha shakllarda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni rejalashtirish va metodik jihatdan ta'minlash; o'quvchilarning ta'lim olganlik, rivojlanish va tarbiyalanganlik darajasini kuzatish, tahlil qilish va baholash; pedagogik faoliyatga nisbatan tadqiqiy yondashish malakalariga ega bo'lish [12, 4] imkoniyati ta'minlanadi.

XULOSA

Shunday qilib, mutaxassislik fanlaridan biri bo'lgan tarix o'qitish metodikasi tarix fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining sifatli, samarali tashkil etilishini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar mohiyatini yoritadi. Mazkur fanni o'qitish orqali talabalar kasbiy pedagogik faoliyatga amaliy-metodik jihatdan tayyorlash, tarix fanlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni samarali o'qitishning istiqbolli rivojlanish yo'llarini tadqiq qilish, ta'limiy o'zgarishlar, o'qitish yangi tendensiyalari va zamonaviy nazariyalariga tayangan holda tarix fanlari o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini rivojlantirish kabi vazifalar hal qilinadi. Tarix o'qitish metodikasi fani tomonidan ushbu vazifalarning ijobiy hal qilinishi uning mazmunini ijtimoiy o'zgarishlar, ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar, talabalarning kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabatlari asosida izchil takomillashtirib borish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асқарова Ў.М., Усмонбоева М.Х. Педагогика фанларини ўқитиш методикаси. – Наманган: НамДУ, 2018. – 17-б.
2. Глазырина Т.Н. Методика преподавания истории / Учеб.-мет. комплекс для студентов специальности 1-210301 "История". – Новополоцк: ПГУ, 2011. – С. 5.
3. Методика преподавания как педагогическая наука // https://studme.org/1881/sotsiologiya/metodika_prepodavaniya_sotsiologii_kak_nauchnaya_distsiplina.
4. Методика // <https://kartaslov.ru/значение-слова/методика>.

5. Методика // <https://ru.wikipedia.org/wiki/Методика>.
6. “Олий таълимда тарих фанларини ўқитиш методикаси” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа / Туз.: А.Р.Рахматуллаева. – Т.: ТДПУ, 2018. – 4-б.
7. Педагогика. Қисқача изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова. – Наманган: Наманган ДУ, 2014. – 311-б.
8. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. – Т.: ТДПУ, 2015. – 125-б.
9. Студеникина М.Т. Методика преподавания истории в школе / Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. — М.: 2008. – С. 4.
10. Теоретические основы методики преподавания // <https://studfile.net/preview/2895227/page:3>.
11. Турсунов Ф.Ф. Ноюрдик олий таълим муассасаларида ҳуқуқий таълим назарияси ва методикасини такомиллаштириш (“Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” таълим йўналиши мисолида): пед.фанл. бўйича фалс.доктори (PhD) ... дис. – Т.: 2020. – 22-б.
12. Хораськина Р.И., Шувалова Е.М. Теория и методика обучения истории / Учеб.-мет.пособие. – Казань: Казанский ГУ, 2016. – С. 4.
13. Шоган В.В., Сторожакова Е.В. Методика преподавания истории в школе / Учеб.пособие для вузов. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд-во Юрайт, 2019. – С. 9.

УДК 821.161.

**ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОЙ
ЛИТЕРАТУРЫ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ К
САМООБРАЗОВАНИЮ У СТУДЕНТОВ**

Азизова Д. А.,

базовый докторант Наманганского государственного университета

dilnoza.azizova.95@bk.ru

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0000-5894-5013>

***Аннотация:** В работе рассматривается одна из важных проблем, существующих в методике преподавания русского языка и литературы –*